



XORIJIY TILLARNI O'QITISHDA INNOVATSION YONDASHUVLAR NAZARIYANING AMALIYOTGA TATBIQI

mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjumani

BOSHLANG'ICH INGLIZ TILINI TILI DARAJASINI OSHIRISH METODLARI

Komiljonova E'zoza Fazliddin qizi
O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti
Ingliz filologiyasi fakulteti 1-kurs talabasi

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.15177285>

Annotatsiya: Ushbu maqolada ingliz tilni erkin tushunish jarayoniga qadar boshlang'ich sifatni oshirish, xatoliklarni bartaraf etish haqida mulohazalar olib boriladi. Ko'plab yoshlar mana shu bosqichni xato qadam qo'yish bilan boshlaydi, natijada, darajani oshirolmamaslik, yuqori etaplarda qiyinchilik sezish kabi holatlar kuzatiladi. Ushbu maqolada dastlabki bilim salohiyatini IELTS testlari yoki murakkab tuzilishdagi kitoblar bilan emas, balki lug'at boyligini oshirish uchun quyi darajadagi matnlar, grammatik tuzilishlarni o'rganish ma'qul ekanligi haqida so'z boradi.

Kalit so'zlar: Tildagi grammatik bosqichni takomillashtirish, so'z yodlashdagi texnikalar, o'ziga bo'lgan ishonchni oshirish, so'zlarni erkin talaffuz qila bilish.

KIRISH QISM

Zamonaviy globallashtirish davrida chet tillarini o'rganish, xususan, ingliz tilini mukammal o'zlashtirish har qachongidan ham muhim ahamiyat kasb etmoqda. Boshlang'ich ta'lim tizimi bu jarayonning poydevori hisoblanib, aynan shu davrda o'quvchilarning til o'rganishga bo'lgan qiziqishi va motivatsiyasi shakllanadi [1]. Ko'plab o'quvchi yoshlar ingliz tili o'rganishda tezroq IELTS olish uchun oshiqishadi. Tayyorgarlik jarayonida esa boshlang'ich darajani mukammal holatda emasligi natija ko'tarilishiga to'sqinlik qiladi. Albatta, bu tendensiya yoshlarni birgina tilni o'zlashtirish murakkab ekanligiga ishontiradi.

Boshlang'ich ta'limni o'quvchining bilim darajasini hisobga olgan holda, kichik matnlar va muloqot jarayonida xatoliklarga yo'l qo'ymaslik uchun grammatik bog'lanishlarni o'rganish bir qator afzalliklarga ega. Birinchidan, turli xil mavzularni qamrab olgan matnlar o'quvchining lug'at boyligini kengaytirishga xizmat qiladi. Ikkinchidan, matnlar o'quvchilarning emotsional intellektini rivojlantirish va dunyoqarashini shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Shu bilan birga, tildagi gaplarni to'g'ri va tushunarli gapirish uchun tildagi grammatik bosqichni takomillashtirish muhim. Bu so'zlovchining gapirish jarayonida erkin bo'lishini ta'minlab beradi.

METODOLOGIYA VA MUHIM KO'RSATKICHLAR



XORIJIY TILLARNI O'QITISHDA INNOVATSION YONDASHUVLAR NAZARIYANING AMALIYOTGA TATBIQI

mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjumani

Ingliz tilini o'rganishda bir qancha metodlar aytib o'tilgan bo'lib, ular o'quvchining ta'lim sifatini oshirishga va o'qish kompetensiyalarini rivojlantirishga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Matnlarni tahlil qilish bu jaryonni amalga oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Quyida asosiy tadqiqot natijalari va metodlarning muhim jihatlari yoritiladi.

Karimova [2] o'zining tadqiqot ishlarida **pre-writing**, **while-reading** va **post-reading** darajalari ahamiyatini tushuntiradi.

Pre-writing(o'qishdan oldin)- bosqichi o'quvchilarning matni tushunishga tayyorlanishiga yordam beradi. Bu bosqichda matnga oid savollar berish, mavzuga oid tasavvurlarni shakllantirish va asosiy g'oyalarni muhokama qilish kutilgan natijani oshiradi.

While-writing(o'qish davomida)- bosqich matni izchil tahlil qilish va asosiy g'oyalarni aniqlashga qaratilgan. O'quvchilar matn mazmunini yaxshi tushunish uchun bo'limlarga bo'lib o'qish, asosiy so'zlarni belgilash kabi amaliyotlardan foydalanishlari mumkin.

Post-reading(o'qishdan keyin) bosqichi esa o'quvchilarning o'qiganlarni tahlil qilish va o'zlashtirish darajasini mustahkamlashga xizmat qiladi. Bu jarayonda savol-javoblar, bahs-munozaralar va topshiriqlar asosiy o'rinni egallaydi.

Smith[3] o'z tadqiqodlarida badiiy matnlarni tanlashda o'quvchilarning yosh xususiyatlari va qiziqishlarini hisobga olish zarurligini ta'kidlaydi. Uning fikricha, yosh bolalarga mos kelmaydigan matnlarni tanlash ularda o'qishga bo'lgan qiziqishni pasaytirishi mumkin. Shuning uchun bolaning hayotiy tajribasiga mos va qiziqarli bo'lishi kerak.

Yuqoridagi tadqiqotlar o'quvchining tushunish darajasini takomillashtiradi. Matnlar o'rgangan narsasini tilde namayon qilish darajasini ham oshiradi.

Grammatika- har bir tilni o'rganishda poydevor vazifasini bajarib u-siz o'quvchi erkin muloqatga kirisha olamaydi. O'quvchilarni grammatika bosqichda ilmiy salohiyatlarini rivojlantirish uchun quyidagi metodlar o'z samarasini ko'rsatadi:

1. Kommunikativ yondashuv.(Communicative approach)

Kommunikativ yondashuv-bolalarga ingliz tili grammatikasini o'rgatishining eng samarali usullaridan biridir. Bu yondashuvning asosiy tamoyili tilni real hayotdagi muloqatda qo'llashdir. Kommunikativ yondashuv bolalarga tilni amaliyotda qo'llashga yordam beradi, bu esa ularning motivatsiyasini oshiradi.

2. Induktiv yondashuv(Inductive Approach)

Induktiv yondashuv-bolalarning mustaqil ravishda grammatika qoidalarini kashf qilishlariga asoslangan usuldir. Bu yondashuv bolalarning tahliliy fikrlash



XORIJIY TILLARNI O'QITISHDA INNOVATSION YONDASHUVLAR NAZARIYANING AMALIYOTGA TATBIQI

mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjumani

qobiliyatlarini rivojlantiradi va ularga qoidalarni mustaqil ravishda aniqlash imkonini beradi.

3. Texnologiyalarni qo'llash (Using technology)

Texnologiyalarini qo'llash-zamonaviy texnologiyalar yordamida bolalarga ingliz tili grammatikasini o'rganishga yordam beradigan usuldir. Bu usul bolalarning qiziqishini oshiradi va darslarni qiziqarli qiladi [4].

Bilimlarni o'zlashtirish jarayoni to'rtta asosiy bog'inlarda tashkil topgan:

- 1) o'zlashtirishi lozim bo'lgan mavzularni idrok qilish;
- 2) uni fahmlab olish va tushunchalarning paydo bo'lishi;
- 3) bilimlarni mustahkamlash va takomillashtirish, ko'nikma va malakalarning hosil bo'lishi
- 4) Hosil qilingan ko'nikma va malakalarni amalda qo'llash [5].

XULOSA

Tadqiqot natijalariga ko'ra, boshlang'ich darajani oshirish bilan bog'liq muammolarni yuqoridagi texnologiyalar orqali o'rganish boshqalarga qaraganda afzal keladi. O'quvchilar gapirish jarayoniga yetib kelganda so'zlar topishga yoki qayri grammatik struktura to'g'ri kelishini o'ylab qiynalmaydi, o'rgangan metodlari orqali tilda so'zlarni erkin tarzda talaffuz qila oladi. Dastlabki ta'limni rivojlantirish o'ziga bo'lgan ishonchni mustahkamlaydi.

Interaktiv metodlar va zamonaviy texnologiyalardan foydalanish o'quv jarayonini qiziqarli qiladi. Turli xil multimediyaviy vositalari va o'yinlar til o'rganish jarayonini tezlashtiradi va mustahkamlaydi.

Adabiyotlar ro'yxati:

1. Smith, J. (2023). Teaching English through Literature in Primary Schools. Oxford University Press.
2. Karimova, M. (2024). Boshlang'ich sinflarda chet tilini o'qitish metodikasi. Toshkent.
3. Anderson, R. (2023). Reading Comprehension Strategies. Cambridge University Press.
4. Journal of science-innovative research in Uzbekistan, 2(7), 297-303, (2024-07-25)
5. Kaldibekova A. va Xodiyev B. o'quvchilarning bilish faolligini oshirish yo'llari. Uslubiy qo'llanma-Toshkent. 2006, 56-b.